



O'ZBEKISTONDA YASHIL BANK AMALIYOTLARI: IPOTEKA BANKI FAOLIYATI MISOLIDA

M.Q.Maxmudova

Bank Ishi Kafedra Dotsenti, Dsc.

m.mahmudova0112@gmail.com

<https://orcid.org/0000-0002-5777-6606>

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17247678>

Annotatsiya

Barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslangan iqtisodiy tizimni shakllantirish hozirgi kunda dolzarbligini saqlab kelmoqda shuning uchun ham bank sektorida yashil operatsiyalar ko'lamini kengaytirish muhim ahamiyatlidir. Ushbu tadqiqot davomida yashil bank mahsulotlari, uning ahamiyati va turlari Ipoteka banki faoliyati misolida o'rganildi. Yashil bank mahsulotlar ko'lamini yanada kengaytirish uchun takliflar ham keltirib o'tilgan.


Kalit so'zlar: barqaror iqtisodiyot, bank sektori, yashil bank mahsulotlari, atrof-muhitni asrash, ESG strategiyasi.

So'nggi iqlim o'zgarish muammosini samarali hal qilish jarayoni boshlangan yillardan buyon banklar ham bu yo'nalishga qiziqish bildirib kelmoqda. Barqarorlik va iqtisodiy rivojlanish bir nuqtada kesishmoqda va shuni inobatga olgan holda tabiatga do'stona (eco-friendly) bank amaliyotlari keng joriy etilmoqda. Bu kabi amaliyotlarni moliyalashtirish va joriy etishda esa yashil banklarning ahamiyati ortib bormoqda. Yashil bank - bu atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan bank faoliyatining yangi tendensiya shakli hisoblanadi.

O'zbekistonda ham aynan barqaror iqtisodiyotni ta'minlash maqsadida bank sektori tomonidan yashil bank xizmatlari amaliyotga keng joriy etib kelinmoqda. Shuningdek yashil bank mahsulotlari bo'yicha ham qonun va bir qator normativ-huquqiy hujjatlar shakllantirib kelinmoqda. Jumladan, 2019 — 2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini¹ tasdiqlash orqali "yashil" iqtisodiyotga o'tish bo'yicha loyihalarni moliyalashtirishda xususiy sektorni faollashtirish, shuningdek, "yashil" investitsiyalarga nisbatan bank tizimini rag'batlantirish nazarda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2025-yil 1-iyul holati ma'lumotlariga ko'ra, xususiy banklar orasida eng yirik xususiy moliyaviy tashkilot sifatidagi maqomini saqlab qolgan Ipoteka Bank OTP Group ham yashillik sari intilmoqda. Ayniqsa bankning ESG strategiyasiga muvofiq, turli xil yashil mahsulotlari va xizmatlari orqali o'z mijozlariga yashil va past uglerodli

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 04.10.2019 yildagi PQ-4477-son





biznesga o'tishlariga yordam berib kelmoqda. Bank jarayonlariga raqamlashtirishni joriy qilish va qog'ozsiz operatsiyalarni ta'minlash, shuningdek, mijozlarning ishonchli, tushunarli va oson kirish mumkin bo'lgan ma'lumotlarni olishlari uchun imkoniyat yaratilishi bankning asosiy missiyasi hisoblanadi.

Bankning yashil mahsulotlari quyidagilar hisoblanadi:

- Jismoniy shaxslar uchun "avtokreditlar": Super BYD, BYD Boshqa elektromobillar uchun.

- Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari uchun: elektromobil sotib olish uchun "avtokredit".

- Korporativ mijozlar uchun "Investitsion kredit":

- 1.Zamonaviy energiya tejamkor texnologiyalar va uskunalarni sotib olish;


- 2.Qayta tiklanadigan energiya, shu jumladan quyosh panellari va moslamalarni o'rnatish;


- 3.Energiyaning samaradorligini oshirish loyihalarini amalga oshirish;

- 4.Elektromobillar va boshqa ekologik toza transport vositalarini sotib olish;

- 5.Atrof-muhitga ta'sirini kamaytirishga yordam beradigan texnologiyalarni rivojlantirish va boshqalar.

Bank uchun barqaror rivojlanish ekologik, ijtimoiy, boshqaruv (ESG) va iqtisodiy maqsadlarni o'z faoliyatiga integratsiya qilish demakdir. Shuning uchun ham ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish tizimining yuqori sifatli ishlashini ta'minlash maqsadida 2020-yilda Bank Bosh ofisida Ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish bo'limi tashkil etildi. 2023-yil ikkinchi yarimidan boshlab Ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish bo'lim mavqeyi mustahkamlandi va Barqaror rivojlanish departamenti sifatida qayta shakllantirildi. Departament maqomini oshirish faqat ijobiy samara beradi, chunki u bankda yashil (barqaror rivojlanish) yo'nalishdagi ishlarni bankning boshqa bo'linmalari bilan teng ravishda rivojlantirish imkoniyatini yaratadi, shuningdek, tizimning muammosiz va samarali ishlashiga yordam beradi. Shunday qilib, bu barqaror rivojlanish yo'nalishdagi vazifa va funksiyalar ham kengaydi².





1-rasm. Ipotekabankning ESG strategiyasidagi asosiy maqsadlari³.

Ushbu rasm orqali ko'rishimiz mumkinki, ESG strategiyasi asosida belgilangan yo'nalishlar bank faoliyatida ekologik barqarorlik, ijtimoiy mas'uliyat va korporativ boshqaruvni kuchaytirishga qaratilgan. Quyida esa har bir yo'nalish nima maqsad uchun shakllantirilgani keltirilgan:

1. Xodimlar va manfaatdor tomonlar o'rtasida ESG madaniyatini oshirish – bu bankning ichki tizimida ekologik va ijtimoiy mas'uliyatli xizmatlarni shakllantirishga qaratilgan.

2. ESG risklarini boshqarish – barqaror rivojlanishga to'sqinlik qiluvchi omillarni aniqlash va kamaytirish orqali xavfsiz moliyaviy muhit yaratish nazarda tutilgan.


3. Yashil moliya va investitsiyalar – qayta tiklanuvchi energiya, energiya tejamkor texnologiyalar va ekologik toza loyihalarni moliyalashtirish orqali nafaqat iqtisodiy o'sish, balki ekologiyani asrash maqsad qilingan.

4. Mas'uliyatli ish beruvchi – xodimlar uchun qulay va sog'lom mehnat muhitini yaratish, ijtimoiy himoyani ta'minlash hamda kadrlar salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

5. Jamiyatga ijobiy ta'sir – bankning ijtimoiy loyihalar orqali keng jamoatchilikka yordam berishi, barqaror rivojlanishga bevosita hissa qo'shishini anglatadi.


2021-yilda e'lon qilingan ESG strategiyasida bo'lgani kabi, OTP Groupning o'zgarimas maqsadi past uglerodli iqtisodiyotga bosqichma-bosqich o'tishni

³ <https://www.ipotekabank.uz/esg/strategy/>





moliyalashtirishda mas'uliyatli yechimlar bilan barqaror kelajakni qurishdir⁴. Bank guruhi 2025-yilga kelib 1,500 milliard Vengriya Forinti (HUF) qiymatidagi yashil kredit portfelini yaratishni rejalashtirmoqda.



2-rasm. OTP Groupning yashil kredit portfelini hajmining prognozli o'sishi (2022-2025)⁵


Mazkur dinamikadan ko'rinadiki, OTP Group yashil moliyalashtirishni korporativ va jismoniy shaxslarni kreditlashda ustuvor yo'nalish sifatida belgilagan hamda o'z faoliyatini barqaror iqtisodiy rivojlanish tamoyillari bilan uyg'unlashtirishni maqsad qilgan.

Ipotekabank mijozlarga operatsiyalarini raqamlashtirish va o'z faoliyatida kam qog'ozdan foydalanish orqali ekologiyaga salbiy ta'sir ko'rsatishini hisobga olgan holda xizmatlar ko'rsatib kelmoqda. Buning uchun bank "Ipoteka-Retail" mobil ilovasi ishga tushirdi va ilova yordamida filialga tashrif buyurmasdan turib quyidagi qulayliklarni taklif etib kelmoqda:

- To'lovlarni tezkor amalga oshirish;
- Elektron depozit ochish;
- Bank hisoblardagi qoldiqlarni ko'rish;
- Plastik kartalar orqali konversiyani amalga oshirish;
- Bir nechta kartalarni boshqarish;
- Kartadan kartaga pul o'tkazish;
- Uydan chiqmasdan xizmatlar uchun to'lash;

⁴ Green financing is an objective in all three climate change-related subtopics named in the ESRS, and OTP Group does not treat these topics separately. We have not identified a base year for the objective; we have been measuring green exposures in the portf olio since 2022

⁵ https://www.otpgroup.info/static/sw/file/250425_Integrated_report_e_final_093.pdf





- Samarali mobil bankingdan foydalanish.


Bundan tashqari qog'oz sarfini kamaytirish va atrof-muhitni asrash dasturi doirasida bank bankomatlarining uchdan bir qismida yangi fon rasmlari va yangilangan ekranlari joriy etildi. Endilikda amaliyotlarni bajarish jarayonida sizga iltifotli eslatma taqdim etiladi, ya'ni texnik jihatdan bosha bankomatlar singari chek chiqarish yoki chiqarmaslikni tanlash jarayoni b'ladi, lekin vizual ko'rinishi va foydalanuvchiga ta'sir qilish usuli ekologik ongni oshirishga yo'naltirilganligi bilan farq qiladi.

Ipoteka bank va Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YeTTB) uzoq yillar davomida ishonchli hamkor bo'lib kelmoqda va O'zbekistonda kichik va o'rta biznesning ishbilarmonlik faolligini rag'batlantirish bo'yicha birgalikda sa'y-harakatlarni amalga oshirmoqda. 2024-yilning 29-fevral kuni YeTTBning Toshkentdagi vakolatxonasi binosida Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankinging Markaziy Osiyoda tadbirkor ayollar (Women in Business - WiB) dasturi va O'zbekistonda Yashil iqtisodiyotni moliyalashtirishning ikkinchi dasturi (Green Economy Financing Facility II - GEFF II) doirasida "Ipoteka-bank" ATIB va YeTTB o'rtasida umumiy summasi 20 mln. AQSh dollari miqdoridagi kredit kelishuvlarini imzolash marosimi bo'lib o'tdi. Yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish (GEFF II) dasturi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining qayta tiklanuvchi energiya manbalari va energiya samaradorligi texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilash orqali O'zbekistonda iqlimga chidamli, past uglerodli iqtisodiyotga o'tishni qo'llab-quvvatlaydi⁶.

O'zbekistonda yashil bank amaliyotlarini rivojlanishi barqaror iqtisodiy o'sish va ekologik muammolarni hal qilishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ipoteka banki misolida ko'rishimiz mumkinki, ESG strategiyasi asosida yashil kreditlar, ekologik loyihalarni moliyalashtirish, raqamli va qog'ozsiz xizmatlarni joriy etish orqali bank nafaqat moliyaviy barqarorlikni, balki ijtimoiy va ekologik mas'uliyatni ham ta'minlamoqda. O'zbekistonning yashil bank xizmatlar ko'lamini yanada kengaytirish muhim zarurligini inobatga olgan holda, quyidagi choralarni ko'rish yashil bank amaliyotini yanada samarali bo'lishiga ishonamiz:

1. Yashil kredit mahsulotlarini keng joriy etish va aholiga yanada qulay shartlarda taklif qilish.
2. Qayta tiklanuvchi energiya va energiya tejavchi texnologiyalarga investitsiyalarni ko'paytirish.
3. Bank mijozlari va xodimlari o'rtasida ESG tamoyillari va ekologik ongni oshirish bo'yicha muntazam tushintirish ishlarini olib borish

⁶<https://www.ipotekabank.uz/news/news>





Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 04.10.2019 yildagi PQ-4477-son.
2. <https://www.ipotekabank.uz/esg/about/>
3. <https://www.ipotekabank.uz/esg/strategy/>
4. Green financing is an objective in all three climate change-related subtopics named in the ESRS, and OTP Group does not treat these topics separately. We have not identified a base year for the objective; we have been measuring green exposures in the portfolio since 2022
5. https://www.otpgroup.info/static/sw/file/250425_Integrated_report_e_fi_nal_093.pdf
6. <https://www.ipotekabank.uz/news/news>.

